



**YO‘G‘ON ICHAK SARATONINI TASHXISLASHDA MRT
IMKONIYATLARINI BAHOLASH.**

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Toshkent shahar

Xojiahmedov Behruz Jasurbek o‘g‘li

+998910550350 hojiahmedovbehruzbek@gmail.com

Dolzarbligi.

Yo‘g‘on ichak saratoni (kolorektal saraton) dunyo bo‘yicha onkologik kasalliklar orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Kasallik uzoq vaqt davomida simptomsiz kechishi sababli ko‘p hollarda kech bosqichlarda aniqlanadi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, kolorektal saraton o‘lim ko‘rsatkichi bo‘yicha onkologik kasalliklar orasida yuqori o‘rinlarda turadi. Kasallikni erta bosqichda aniqlash prognozni sezilarli darajada yaxshilaydi.

Zamonaviy radiologik usullar, xususan magnit-rezonans tomografiya (MRT), yumshoq to‘qimalarni yuqori aniqlikda ko‘rsatish imkoniyati tufayli o‘smaning lokal tarqalishini, limfa tugunlari holatini va atrof to‘qimalarga invaziyasini aniqlashda muhim o‘rin tutadi

Maqsad.

Yo‘g‘on ichak saratonini aniqlash va bosqichlashda MRT usulining diagnostik imkoniyatlarini baholash.

Materiallar va usullar.

Ushbu tadqiqotda yo‘g‘on ichak saratoniga gumon qilingan bemorlar tekshirildi. Jami 25 nafar bemorga MRT tekshiruvi o‘tkazildi.



Tekshiruvlar amaldagi standartlar asosida bajarildi, ayrim hollarda kontrast modda qoʻllanildi. Olingan natijalar kolonoskopiya va biopsiya xulosalari bilan solishtirildi.

Tekshiruv jarayonida oʻsmaning joylashuvi, uning hajmi, ichak devoriga tarqalish darajasi hamda yaqin limfa tugunlarining holati baholandi.

Natijalar

Oʻtkazilgan tadqiqot natijalariga koʻra:

- 18 nafar (72%) bemorda MRT yordamida oʻsmaning joylashuvi va hajmi aniq baholandi.
- 15 nafar (60%) bemorda ichak devoriga invaziya darajasi toʻgʻri aniqlangan.
- 12 nafar (48%) bemorda regional limfa tugunlarining zararlanishi aniqlangan.
- 5 nafar (20%) bemorda uzoq metastazlar (asosan jigar) aniqlangan.

MRT natijalari koʻpchilik hollarda KT va kolonoskopiya maʼlumotlari bilan mos keldi.

Xulosa

MRT yoʻgʻon ichak saratonini tashxislash va bosqichlashda yuqori diagnostik ahamiyatga ega boʻlib, ayniqsa oʻsmaning mahalliy tarqalishini va atrof toʻqimalarga invaziyasini baholashda samarali hisoblanadi.

Shu bilan birga, MRT kompleks diagnostikaning bir qismi sifatida qoʻllanilishi lozim va boshqa tekshiruv usullari bilan birgalikda qoʻllanganda eng yuqori natijani beradi.

